

ZAMONAVIY SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI

Hamrayev M.S

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali "Iqtisodiyot" kafedrası PhD., dotsent

Xidirova Maftuna Kamilovna

MRF-s-124U guruh magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada sug'urta kompaniyalari ustav kapitalini oshirib, raqamlashtirish va malakali kadrlarni tayyorlash orqali bozorda barqarorlikni ta'minlamoqda. Sug'urta bozorini rivojlantirish uchun xabardorlikni oshirish, yangi xizmatlar yaratish, raqobatni rag'batlantirish, malakali kadrlar tayyorlash va raqamli infratuzilmani kuchaytirish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: raqamli infratuzilma, ustav capital, ijtimoiy himoya, sug'urta bozori, rag'batlantirish, malakali kadrl, sug'urta agent.

Аннотация: В статье рассматривается, что страховые компании обеспечивают устойчивость на рынке за счёт увеличения уставного капитала, внедрения цифровых технологий и подготовки квалифицированных кадров. Для развития страхового рынка рекомендуется повышать уровень информированности населения, создавать новые услуги, стимулировать конкуренцию, совершенствовать систему подготовки профессиональных кадров, а также укреплять цифровую инфраструктуру.

Ключевые слова: цифровая инфраструктура, уставный капитал, социальная защита, страховой рынок, стимулирование, квалифицированные кадры, страховой агент.

Abstract. The article examines how insurance companies ensure market stability by increasing their charter capital, implementing digital technologies, and training qualified personnel. To further develop the insurance market, it is recommended to raise public awareness, introduce new services, stimulate competition, improve professional training systems, and strengthen digital infrastructure.

Keywords: digital infrastructure, charter capital, social protection, insurance market, stimulation, qualified personnel, insurance agent.

Sug'urta iqtisodiyotning barqarorligi va aholi ijtimoiy himoyasi uchun muhim moliyaviy institut hisoblanadi. Bu xizmatlar orqali shaxslar va korxonalar moliyaviy yo'qotishlardan himoyalangani, mablag'lar iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga qayta taqsimlanadi va biznes faoliyati rag'batlantiriladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda sug'urta bozori jadal rivojlanmoqda: sug'urta mukofotlari hajmi sezilarli darajada oshdi, raqamlashtirish va onlayn xizmatlar kengaytirildi, xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha dasturlar yo'lga qo'yildi.

Shunga qaramay, milliy sug'urta bozorining rivojlanishi hali bir qator muammolar bilan bog'liq. Aholining sug'urta madaniyati pastligi, xizmatlar turining cheklanganligi, monopol holatlar, kadrlar malakasining yetarli emasligi, raqamlashtirishning to'liq amalga

oshirilmaganligi, moliyaviy barqarorlik va qayta sug'urtalash tizimining rivojlanmaganligi kabi omillar bozorda samarali faoliyat yuritishni murakkablashtirmoqda. Shu sababli, ushbu muammolarni aniqlash va ularga yechim topish milliy sug'urta bozorini yanada rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston sug'urta bozori so'nggi yillarda jadal rivojlanayotgan bo'lsa-da, uning oldida bir qator muammolar mavjud. Ular asosan tizimli, iqtisodiy va madaniy omillardan kelib chiqadi. Sug'urta madaniyati pastligi, aholining sug'urta xizmatlariga bo'lgan ishonchi pastligi va xabardorlik yetarli emas. Ko'plab fuqarolar sug'urtani "keraksiz xarajat" sifatida qabul qiladi va sug'urta mahsulotlarini to'g'ri tanlash va undan samarali foydalanish bo'yicha aholi orasida yetarli ko'nikmalar yo'q. Buning natijasida, mijozlar sug'urta xizmatlaridan kam foydalanadi va bozordagi talab past bo'lib qolmoqda.

Bozor qamrovi va xizmatlar turining cheklanganligi O'zbekiston sug'urta bozorida xizmatlar turlari cheklangan. Masalan, rivojlangan davlatlarda 3000 ga yaqin sug'urta turi mavjud bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich atigi 150 ga teng. Shu sababli aholining turli ehtiyojlarini qamrab olish va innovatsion sug'urta mahsulotlarini joriy etish faoliyati cheklangan.

Monopol holatlar va raqobatning yetarli emasligi bozorda ayrim kompaniyalar ulushi juda katta, bu esa sog'lom raqobatni cheklaydi. Rivojlangan mamlakatlarda bozor xavfsizligi uchun bir kompaniyaning ulushi ma'lum darajadan oshmasligi tavsiya etiladi, O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich ba'zi tarmoqlarda yuqori bu monopol holatlar narxlarini oshirish va xizmat sifatini pasayishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari kadrlar malakasi va kasbiy tayyorgarlik yetishmasligi, raqamlashtirish va texnologik infratuzilmaning cheklanganligi, moliyaviy barqarorlik va qayta sug'urtalash tizimi rivojlanmaganligi, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarning o'zgaruvchanligi shular jumlasidandir.

Raqamli tizimning rivojlanishi amalda faoliyat yuritib kelayotgan sug'urta kompaniyalari mahalliy, balki xorijiy mijozlarga yuqori sifatli sug'urta xizmatlarining keng turlarini amaliyotga joriy etish hamda sug'urta xizmatlarini kengaytirish, sug'urta kompaniyalari moliyaviy resurslarini samarali boshqarish milliy sug'urta bozorini rivojlantirishdagi asosiy muammolardan biridir.

Bu sohasi iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi —Sug'urta faoliyati to'g'risidagi Qonuni 3-moddasiga ko'ra, sug'urta — muayyan voqea (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararning o'rnini qoplash, tovonlar va boshqa to'lovlar to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlardir⁴.

Raqamli globallashuv jarayonida sug'urta xizmatlarining shaklan o'sishi va raqobatbardoshligining ortib borishi avvalom bor sug'urta bozorining tuzilishidagi sug'urta tashkilotlari soni, sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali, sug'urta brokerlari soni, aktuariylar soni, sug'urta agentlari soni va to'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zolari bo'lgan sug'urta tashkilotlarining soniga bevosita bog'liqdir.

⁴ O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrda O'RQ-730-sonli "Sug'urta faoliyati to'g'risi"dagi Qonuni 3-moddasi O'RQ-730-son 23.11.2021. Sug'urta faoliyati to'g'risida

Xususan mamlakatimizda holatning keyingi yillarda amaliy taxlilini 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining tuzilishi

No	Sug'urta bozori tuzilishi	2023 yil	2024 yil 9 oyi	2025 yil 9 oyi	2024 yilga nisbatan 2025 yildagi o'zgarish (+/-)
1	Sug'urta tashkilotlari soni	42	35	35	0%
2	shu jumladan hayot sug'urtasi bo'yicha	8	5	6	+20,0%
3	Sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali (mln. so'mda)	2 311 521	2 559 944	3 624 046	+41,6%
4	Sug'urta brokerlari soni	8	11	11	0%
5	Aktuariylar soni	5	5	7	+40,0%
6	Sug'urta agentlari soni	4 773	4 538	3 527	-22,3%
7	shu jumladan yuridik shaxslar	1 543	1 494	1 453	-2,7%
8	To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zolari bo'lgan sug'urta tashkilotlarining soni	27	25	25	0%

2023 yilda sug'urta tashkilotlari soni 42 ta bo'lgan bo'lsa, 2024 va 2025 yillarda u 35 taga kamaygan va 2025 yilda o'tgan yil bilan solishtirganda o'zgarmagan (0%). Bu umumiy sug'urta bozorida konsolidatsiya jarayonlari borayotganini ko'rsatadi. Hayot sug'urtasi bo'yicha tashkilotlar esa 2023 yilda 8 ta bo'lgan, 2024 yilda 5 taga tushgan, ammo 2025 yilning 9 oyida yana 6 taga ko'tarilgan (+20%). Bu hayot sug'urtasi segmentida qayta tiklanish yoki yangi faoliyat boshlayotgan tashkilotlarning borligini bildiradi.

Sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali 2023 yilda 2 311 521 mln. so'm bo'lgan, 2024 yilda 2 559 944 mln. so'mga ko'tarilgan, va 2025 yil 9 oyida 3 624 046 mln. so'mga yetib, 2024 yilga nisbatan +41,6% o'sishni ko'rsatgan. Bu esa sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi kuchayayotganini va bozordagi kapital hajmi sezilarli o'sishini bildiradi.

Sug'urta sohasida brokerlari 2023 yilda 8 ta, 2024 va 2025 yillarda 11 taga yetgan va 2025 yilda o'tgan yil bilan solishtirganda o'zgarmagan (0%). Bu sug'urta xizmatlarining vositachilik segmentida barqarorlikni ko'rsatadi. Aktuariylar soni esa 2023–2025 yillarda oshib bormoqda: 5 dan 7 taga (+40%). Bu sug'urta risklarini hisoblash va tahlil qilishga bo'lgan talabning ortayotganidan dalolat beradi. Umumiy agentlar soni 2023 yilda 4 773 ta bo'lgan, 2024 yilda 4 538 taga tushgan, va 2025 yilning 9 oyida 3 527 taga kamaygan (-22,3%). Shu jumladan yuridik shaxslar agentlar soni 1 543 dan 1 453 taga kamaygan (-2,7%). Bu ko'rsatkich sug'urta bozorida agentlik faoliyatining qisqarayotganini yoki raqamli/online xizmatlar orqali ko'proq mijozlarga xizmat ko'rsatish trendini bildiradi.

To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zolari bo'lgan sug'urta tashkilotlarida bu ko'rsatkich 2023 yilda 27 ta, 2024 va 2025 yillarda 25 ta bo'lib, o'zgarmagan (0%). Bu sug'urta tizimining ishonchliligi va a'zolik barqarorligini ko'rsatadi. Sug'urta tashkilotlari soni kamaygan bo'lsa-da, ustav kapitali sezilarli darajada oshgan, bu bozordagi moliyaviy mustahkamlikni ko'rsatadi. Hayot sug'urtasi segmentida tiklanish bor, bu esa aholining

uzoq muddatli sug'urta mahsulotlariga qiziqishi oshayotganidan dalolat beradi. Aktuariylar soni ortgani risklarni ilmiy asosda baholashga bo'lgan talabning ortganini ko'rsatadi. Agentlar sonining kamayishi raqamli xizmatlar va agentlik faoliyatining samaradorligini oshirishga urinish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Brokerlar va to'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zolari soni barqaror, bu bozorning professional va ishonchli segmentlari saqlanayotganini bildiradi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, O'zbekiston sug'urta bozori barqarorlik va aholi ijtimoiy himoyasi uchun muhim institut hisoblanadi. Shu bilan birga, bozorda bir qator muammolar mavjud va ularni hal qilish orqali samaradorlikni oshirish mumkin.

1. Aholi ko'pincha sug'urta xizmatlarini "kereksiz harajat" deb qabul qiladi va ulardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalari yetarli emas. Bu muammoni hal qilish uchun ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy targ'ibot va onlayn kurslar orqali aholi orasida sug'urta foydasi va ahamiyatini targ'ib qilish kerak. Shuningdek, mahalliy seminarlar va treninglar o'tkazish orqali aholi va kichik bizneslar sug'urta mahsulotlaridan samarali foydalanishni o'rganishi ta'minlanadi. Natijada, aholi ishonchi oshadi, mahsulotlardan foydalanish ko'payadi va bozordagi talab ham o'sadi;

2. Sug'urta xizmatlari turlarining rivojlangan davlatlar bilan taqqoslaganda ancha cheklangan. Bu muammoni hal qilish uchun yangi sug'urta mahsulotlari joriy etilishi lozim (masalan, mikro-sug'urta, kiberxavfsizlik, iqlim o'zgarishiga mos sug'urta). Shuningdek, onlayn platformalar orqali shartnomalarni tez va qulay rasmiylashtirish va innovatsion mahsulotlar paketlarini yaratish orqali aholi va biznesning turli ehtiyojlari qondiriladi. Bu choralar bozor qamrovini kengaytiradi va sug'urta kompaniyalari daromadini oshiradi;

3. Bozorda ba'zi kompaniyalar ulushi yuqori va raqobat cheklangan, bu esa narxlar oshishi va xizmat sifati pasayishiga olib keladi.

Buni kamaytirish uchun kompaniyalarning bozor ulushini nazorat qilish, kichik va o'rta sug'urta kompaniyalarini soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiyalar orqali qo'llab-quvvatlash tavsiya etiladi. Shu orqali bozor barqarorligi oshadi, narxlar pasayadi va xizmat sifati yaxshilanadi.

4. Sug'urta sohasida malakali kadrlar yetishmasligi va kasbiy tayyorgarlikning pastligi aniqlandi. Buni hal qilish uchun actuariy va sug'urta mutaxassislari uchun malaka oshirish kurslari, stajirovkalar va doimiy sertifikatlash dasturlari tashkil etilishi kerak. Bu choralar kompaniyalarga professional xodimlar bilan ta'minlanish imkonini beradi va riziklarni boshqarish hamda mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishni yaxshilaydi.

5. Sug'urta kompaniyalari ustav kapitali va moliyaviy barqarorlikni kuchaytirishi, xalqaro qayta sug'urtalash kompaniyalari bilan hamkorlik qilish va risklarni ilmiy asosda tahlil qilish orqali katta moliyaviy yo'qotishlardan himoyalaniishi mumkin. Bu choralar bozorning barqarorligini ta'minlaydi va sug'urta kompaniyalarini moliyaviy jihatdan mustahkam qiladi.

6. Onlayn sug'urta xizmatlari va zamonaviy dasturiy ta'minotlar orqali xizmatlarni kengaytirish, ma'lumotlarni markazlashtirilgan raqamli bazada saqlash va tahlil qilish orqali kompaniyalar o'z resurslarini samarali boshqaradi. Bu choralar mijozlarga qulay xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi va bozorning raqamli transformatsiyasini tezlashtiradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi O'RQ-730-sonli "Sug'urta faoliyati to'g'risi"dagi Qonuni 3-moddasi
2. Haydarov N.X. Moliya: umumdavlat moliyasi. T.: Iqtisod-moliya, 2009. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti. <https://stat.uz/uz/>
3. Samarqand viloyati statistika Boshqarmasi rasmiy sayti. <https://camstat.uz/uz/>